



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF
ABU RAYHAN BERUNI
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,
AND ECONOMY IN THE FIELD OF
CONSTRUCTION AND
ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
1-TO'PLAMI



TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusufov, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikarova, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

hamda sun'iy muhitni uyg'unlashtirishga qaratilgan strategiyalarni joriy etish orqali qulay, sog'lom va barqaror shahar muhitini yaratish mumkin bo'ladi. Adaptiv landshaft loyihalashtirish sohasidagi keyingi tadqiqotlar va ishlanmalar kelajak avlodlarning farovonligini ta'minlaydigan, yanada barqaror va funksional shahar landshaftlarini yaratishga xizmat qiladi.

Iqlim o'zgarishi sharoitida landshaft arxitekturasini nafaqat go'zal manzaralar yaratish, balki inson salomatligini ta'minlash, ekologik muvozanatni saqlash va barqaror rivojlanishga xizmat qilish vazifasini bajaradi. Yashil hududlarni moslashtirish va tabiiy hamda sun'iy muhitni uyg'unlashtirish orqali kelajakdagi iqlimga chidamli shahar muhitini yaratish mumkin. Bu esa faqatgina arxitektorlar yoki shaharsozlarning emas, balki jamiyatning har bir a'zosining mas'uliyatini talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bouler, D. E., Buyung-Ali, L. M., Nayt, T. M., va Pullin, A. S. Shaharlar va qishloqlarni sovitish maqsadida yashil hududlarni yaratish: Empirik ma'lumotlarni tizimli ko'rib chiqish. Landshaft va shahar rejalashtirish jurnali. 2010.
2. Horvath Associates. Climate-Resilient Designs in Landscape Architecture, 2025.
3. Wikipedia. Sponge City: Benjakitti Forest Park [Vikipediya](#)
4. SCAPE Landscape Architecture. Living Breakwaters, Staten Island, projekt thelandscapelab.co.uk
5. <https://yandex.ru/images>
6. <https://www.google.com/search>
7. <https://www.google.com/search?q=City+in+a+Garden>

INTERAKTIV KUTUBXONALAR ARXITEKTURASI: ZAMONAVIY TA'LIM VA MADANIYAT MUASSASALARI UCHUN YANGI KONSEPSIYALAR

Inogomov Baxtiyor Ismailovich

Toshkent arxitektura qurilish universiteti "Arxitektura" kafedrası v.b.
professori

Abdillayev Boburjon Ikramjanovich

Toshkent arxitektura qurilish universiteti "Arxitektura" kafedrası assistenti

Annotatsiya

Zamonaviy kutubxonalar yangi axborot-kommunikatsiya muhiti muammolariga dosh bera olishlari uchun o'z faoliyati va xizmatlarini qayta belgilashi, diversifikatsiya qilishi kerak [1]. Mazkur maqolada interaktiv kutubxonalar arxitekturası zamonaviy ta'lim va madaniyat muassasalari kontekstida tahlil qilinadi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar, multimedıya vositalari va interaktiv platformalar asosida tashkil etilgan kutubxonalar nafaqat kitob saqlash joyi, balki ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlovchi, ilmiy va madaniy tadbirlarni amalga oshiruvchi muhim ijtimoiy markaz sifatida qaralmoqda. Maqolada interaktiv kutubxona loyihalashda qo'llaniladigan arxitektura yechimlari, ergonomika va dizayn tamoyillari, energotejamkor qurilish yondashuvlari hamda foydalanuvchi qulayligini ta'minlashga xizmat qiluvchi innovatsion g'oyalar keng yoritilgan. Shuningdek, xorijiy tajribalar tahlili asosida O'zbekiston sharoitiga mos takliflar ishlab chiqilgan.

Аннотация

Современным библиотекам необходимо переопределить и диверсифицировать свою деятельность и услуги, чтобы они могли справиться с проблемами новой информационно-коммуникационной среды[1]. В данной статье анализируется архитектура интерактивных библиотек в контексте современных образовательных и культурных учреждений. Сегодня библиотеки, созданные на основе цифровых технологий, мультимедийных средств и интерактивных платформ, рассматриваются не только как места хранения книг, но и как важный социальный центр, поддерживающий образовательный процесс и осуществляющий научные и культурные мероприятия. В статье широко освещены архитектурные решения, применяемые при проектировании интерактивной библиотеки, принципы эргономики и дизайна, энергосберегающие подходы к строительству, а также инновационные идеи,

служашие обеспечению удобства пользователя. Также на основе анализа зарубежного опыта разработаны предложения, соответствующие условиям Узбекистана.

Annotation

Contemporary libraries need to redefine, to diversify their activities and services so that they can face the challenges of the new information and communication environment. This article analyzes the architecture of interactive libraries in the context of modern educational and cultural institutions. Today, libraries, organized on the basis of digital technologies, multimedia tools and interactive platforms, are considered not only a place to store books, but also an important social center that supports the educational process and carries out scientific and cultural events. The article extensively covers architectural solutions used in the design of interactive libraries, ergonomics and design principles, energy-efficient construction approaches and innovative ideas that ensure user convenience. Also, based on the analysis of foreign experience, proposals suitable for the conditions of Uzbekistan have been developed.

Kalit soʻzlar

Interaktiv kutubxona, arxitektura konsepsiyasi, zamonaviy taʼlim, madaniyat muassasalari, innovatsion loyihalash, raqamli texnologiyalar, energotejamkorlik.

Ключевые слова

Интерактивная библиотека, архитектурная концепция, современное образование, учреждения культуры, инновационное проектирование, цифровые технологии, энергосбережение.

Keywords

Interactive library, architectural concept, modern education, cultural institutions, innovative design, digital technologies, energy efficiency.

Kirish

Soʻnggi oʻn yilliklarda globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va insoniyatning bilimga boʻlgan ehtiyoji natijasida kutubxonalar faoliyatida tub oʻzgarishlar yuz bermoqda.

Anʼnaviy kutubxonalar faqat kitoblarni saqlash va ulardan foydalanishni tashkil etishga yoʻnaltirilgan boʻlsa, bugungi kunda ular keng qamrovli taʼlim, madaniyat va axborot markazlariga aylanish yoʻlida rivojlanmoqda. Ayniqsa,

interaktiv texnologiyalar joriy etilishi kutubxonalarni jamiyat hayotida faolroq ishtirok etishga undamoqda.

Asosiy qism

Interaktiv kutubxonalar konsepsiyasi, bir tomondan, raqamli texnologiyalarni keng qo'llash, ikkinchi tomondan, binoning arxitektura va ichki makonini yangicha talqin qilishni taqozo etadi. Bugungi kun talabi shuki, kutubxona binolari nafaqat kitobxon uchun qulay o'quv zallarini, balki multimedia resurslari, elektron bazalar, virtual laboratoriyalar, seminar va konferensiya zallari, dam olish va ijodiy muhitni ham o'z ichiga olishi kerak [2]. Shuningdek, barqaror rivojlanish tamoyillari ham kutubxona loyihalarida muhim o'rin tutadi. Bu esa energotejamkor qurilish materiallaridan foydalanish, tabiiy yorug'lik va shamollatish tizimlarini hisobga olish, ekologik xavfsizlikni ta'minlashni talab etadi. Shu ma'noda, interaktiv kutubxonalar nafaqat ta'lim muassasalari uchun, balki keng jamoatchilik uchun ham ochiq, foydalanuvchi markaziga asoslangan ijtimoiy-madaniy maskan sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbuslari asosida so'nggi yillarda yurtimizda yoshlarning ilmiy va ijodiy salohiyatini oshirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish hamda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa yangi tipdagi kutubxonalar, xususan, interaktiv kutubxonalar arxitekturasini joriy etish uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Shu bois, mazkur maqolada interaktiv kutubxonalar arxitekturasini konsepsiyalari, ularning zamonaviy ta'lim va madaniyat muassasalari uchun ahamiyati, xorijiy tajribalar va O'zbekiston sharoitiga mos yechimlar tahlil qilinadi.

Materiallar va usullar. Interaktiv kutubxonalar tushunchasi va zarurati: Interaktiv kutubxonalar – bu an'anaviy kutubxona faoliyatini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimedia platformalari va arxitektura yechimlari bilan uyg'unlashtirgan yangi turdagi ilmiy-ma'rifiy muassasadir. Ularning asosiy maqsadi – kitobxonlarga kitob fondidan foydalanish imkoniyatini berish bilan birga,

bilim olish jarayonini interaktiv, ya'ni ikki tomonlama muloqot asosida tashkil etishdir.

Bugungi globallashuv davrida ta'lim oluvchilar, tadqiqotchilar va keng jamoatchilikning ma'lumotga bo'lgan talabi keskin oshib bormoqda. Internet manbalari ko'plab imkoniyatlar yaratgani holda, ishonchlilik va ilmiy aniqlik nuqtayi nazaridan har doim ham kutubxona fondini to'liq almashtira olmaydi. Shu sababli, interaktiv kutubxonalar kitob, elektron resurs, multimedia materiallari va onlayn platformalarni birlashtirgan kompleks muassasa sifatida ahamiyat kasb etmoqda [3].

Arxitektura yechimlari va loyihalash tamoyillari: Interaktiv kutubxonalarni barpo etishda arxitektura jihatidan quyidagi tamoyillarga alohida e'tibor qaratiladi:

Moslashuvchan makon – o'quv zallari, konferensiya xonalari, kichik guruhlar uchun muhokama burchaklari, shaxsiy ishlash joylari va dam olish zonalari birlashtiriladi.

Texnologik integratsiya – elektron kataloglar, axborot kiosklari, virtual ekranga ega interaktiv panellar, QR-kodlar orqali tezkor kirish imkoniyatlari yaratiladi.

Tabiiy yorug'lik va shamollatish – energotejamkorlikni ta'minlash uchun katta oynali fasadlar, quyosh panellari va ventilyatsiya tizimlari qo'llaniladi.

Estetik dizayn – interyer va eksteryerda zamonaviy arxitektura uslublari bilan milliy an'analarni uyg'unlashtirish foydalanuvchilar uchun qulay muhit yaratadi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun imkoniyatlar – panduslar, liftlar, maxsus o'quv zonalari orqali barcha qatlamlarga teng imkoniyat beriladi.

Xorijiy tajribalar tahlili: Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida interaktiv kutubxonalar arxitekturasi keng joriy etilgan. Masalan:

Singapur Milliy kutubxonasi – 16 qavatli bino bo'lib, unda o'quv zallari, raqamli laboratoriyalar, ekologik bog'lar va energotejamkor tizimlar mujassamlashtirilgan.

Finlyandiya (Xelsinki) Oodi kutubxonasi – "xalq uyi" deb ataladi, chunki unda nafaqat kitob fondi, balki 3D-printerlar, media-studiyalar, musiqiy mashg'ulotlar xonalari va turli seminarlar uchun makonlar mavjud.

AQSh (Nyu-York ommaviy kutubxonasi) – virtual resurslardan foydalanish imkoniyatini kengaytirgan holda, kutubxonani turizm va ta’lim markaziga aylantirgan.

Mazkur tajribalar shuni ko’rsatadiki, interaktiv kutubxonalar nafaqat ta’lim tizimiga, balki mamlakatning ilmiy-texnikaviy va madaniy rivojiga ham katta hissa qo’shmoqda.

O‘zbekiston sharoitida interaktiv kutubxonalarni rivojlantirish: Mamlakatimizda so‘nggi yillarda “Yoshlar kutubxonasi”, “Axborot-resurs markazlari” hamda Milliy kutubxona faoliyatini modernizatsiya qilish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin mavjud infratuzilmani interaktiv darajaga olib chiqish uchun quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

Raqamlashtirish – barcha fondlarni elektron shaklga o‘tkazish, yagona onlayn katalog yaratish.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatdiki, arxitektura modernizatsiyasi – kutubxonalarni o‘quvchi uchun qulay, ochiq va moslashuvchan muhitda qayta loyihalash.

Innovatsion texnologiyalar – virtual reallik (VR), sun’iy intellekt (AI) va 3D-modellashtirishdan foydalanish.

Ijtimoiy integratsiya – kutubxonalarni yoshlar markazi, startap inkubatorlari va madaniy-ma’rifiy tadbirlar maskaniga aylantirish.

Kadrlar tayyorlash – zamonaviy axborot kutubxonashunosligi va dizayn bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash.

Interaktiv kutubxonalar ijtimoiy-madaniy ahamiyati:

Interaktiv kutubxonalar:

Ta’lim sifatini oshiradi, talabalar va o‘quvchilarning mustaqil izlanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Jamiyatda kitobxonlik madaniyatini oshiradi.

Innovatsion g‘oyalar va startap loyihalar uchun maydon yaratadi.

Madaniy almashinuv va jamoaviy muloqotni kuchaytiradi.

Raqamli tafovutni kamaytirishga xizmat qiladi.

Interaktiv kutubxonalar nafaqat kitob va ilmiy manbalarni saqlash joyi, balki keng jamoatchilik hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-madaniy maskan sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning faoliyati jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirish, madaniy merosni asrab-avaylash va zamonaviy innovatsion jarayonlarni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi [4].

Ta'limiy ahamiyat: Interaktiv kutubxonalar o'quvchilar va talabalar uchun mustaqil bilim olish, qo'shimcha manbalar bilan ishlash, ilmiy izlanishlarni rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Elektron kataloglar va onlayn resurslar orqali istalgan fan bo'yicha tezkor ma'lumot olish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Multimedia vositalari va interaktiv dars xonalari orqali ta'lim jarayoni yanada samarali tashkil etiladi.

Madaniy-ma'rifiy ahamiyat: Kutubxonalar xalqning boy madaniy merosi, adabiyot, san'at va tarixiy manbalarini keng ommaga taqdim etadi.

Interaktiv kutubxonalar doirasida adabiy uchrashuvlar, seminarlar, ma'rifiy kechalar va ko'rgazmalar muntazam o'tkazilib, jamiyatda madaniy faollikni oshiradi.

Madaniyat markazi sifatida ular yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalaydi.

Innovatsion va ijtimoiy integratsiya: Interaktiv kutubxonalar yoshlarning startup g'oyalari, innovatsion loyihalari va ijodiy ishlanmalarini taqdim etish hamda rivojlantirish maydoniga aylanadi.

Ularda turli kasb-hunar va texnologik to'garaklar tashkil etilib, yoshlarning ijodiy qobiliyatlari qo'llab-quvvatlanadi.

Kutubxonalar jamiyatdagi turli qatlamlar – talabalar, olimlar, ijodkorlar, tadbirkorlar va keng jamoatchilik uchun ijtimoiy muloqot maydoni vazifasini bajaradi.

Raqamli tafovutni kamaytirish: Bugungi kunda raqamli savodxonlik hamma uchun teng darajada emas. Interaktiv kutubxonalar bepul internet, elektron resurslar

va multimedia xonalari orqali raqamli bilimlar bo'yicha keng jamoatchilikni qo'llab-quvvatlaydi. Bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qiladi [5].

Jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish: Kutubxonalar yoshlarning ilmiy izlanishlarini rag'batlantiradi, ularni kreativ fikrlashga undaydi.

Ilmiy konferensiyalar, munozaralar va master-klasslar orqali jamiyatda intellektual salohiyat, fikr almashish madaniyati yuksaladi.

Shu jihatdan interaktiv kutubxonalar mamlakatning innovatsion rivojlanish strategiyasiga hamohang tarzda faoliyat yuritadi.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, interaktiv kutubxonalar zamonaviy ta'lim va madaniyat muassasalari uchun nafaqat axborot manbai, balki keng jamoatchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy-ma'rifiy markaz sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday kutubxonalar an'anaviy bilim olish jarayonini raqamli texnologiyalar, multimedia resurslari va innovatsion xizmatlar bilan boyitib, foydalanuvchilarning bilim va ko'nikmalarini kengaytiradi.

Interaktiv kutubxona arxitekturasi zamonaviy loyihalash tamoyillariga asoslanib, energotejamkor, ekologik xavfsiz, qulay va estetik jihatdan mukammal muhitni yaratishi zarur. Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, bunday kutubxonalar yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, raqamli tafovutni kamaytirish va jamiyatni innovatsion yo'nalishda taraqqiy ettirishda katta hissa qo'shadi.

O'zbekiston sharoitida interaktiv kutubxonalar konsepsiyasini keng joriy etish yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ilmiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilishda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu bois, kutubxona binolarini zamonaviy arxitektura asosida qayta qurish, elektron resurslar bazasini kengaytirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bugungi kun talabidir.

Interaktiv kutubxonalar kelajakda nafaqat bilim va madaniyat markazi, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi ilmiy, ma'rifiy va ijtimoiy integratsiya maydoni sifatida yanada keng ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Prof. dr. Elena Tîrziman. Contemporary Library And Its Role In The Community. September 2018
2. Jo'rayev Sh., To'xtayev A. *Kutubxonashunoslik asoslari*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2018. – 220 b.
3. Qodirova M. *Arxitektura nazariyasi va zamonaviy loyihalash tamoyillari*. – Toshkent: TMI nashriyoti, 2020. – 315 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. – <https://lex.uz>
5. O'zbekiston Milliy kutubxonasi rasmiy sayti. – <http://www.natlib.uz>

THE ROLE OF SMALL AND MEDIUM-SIZED BUSINESSES IN PROVIDING SERVICES AND MANAGING MODERN URBAN AREAS.

Ismailov Najmiddin Ilxamovich
Samarkand state university of architecture and construction,
[ORCID: 0009-0009-6482-7684](https://orcid.org/0009-0009-6482-7684)

Annotation

This article discusses the role of small and medium-sized businesses in providing services and managing modern urban areas. The current state of development of small and medium-sized businesses is analyzed. The author provides an understanding of entrepreneurship, small and medium-sized businesses.

Key words

modern area, small and medium-sized businesses, accommodation services, catering services, small businesses, trade services, transport services.

Introduction

In implementing economic reforms in our country, special attention was paid to the rapid development, encouragement and support of small business and private